

**Matyakubova Soxiba O'rinboy qizi**

*Urganch davlat universiteti magistranti*

Xiva xonligi tarixiga nazar soladigan bo'lsak, bir qator manbalarga duch kelamiz, hamda bu manbalarni o'rganish davomida ulardagi ma'lumotlarning ma'zmun va ko'laming turlichaligi mavzuni chuqurroq o'rganish lozimligini taqazo etadi.

Xiva xonligining qo'g'irotlar sulolasini o'rganishda quyidagi manbalar muhim hisoblanadi. Shermuhammad Munis (Firdavs ul-iqbol), Muhammad Rizo Erniyozbek o'g'li Ogahiy "Riyoz ud-davla", "Zubdat ut-tavorix", "Jome' ul-voqeoti sultoniy", "Gulshani davlat", "Shahidi iqbol") Muhammad Yusuf Bayoniy ("Shajaratayi Xorazmshohiy", "Xorazm tarixi"), Sayyid Homid To'ra Komyob ("Tavorix ul-xavonin"). Bundan tashqari Ahmadjon Tabibiy ("Majmuat ush-shuaro"), Bobojon Tarroh Azizov ("Xorazm navozandalari tarixi"), Jumaniyoz Hoja Xorazmiy al-Xivaqiy ("Isfandiyor davrining voqealari"), Hasanmurod qori Laffasiy ("Tazkirai shuaro"), Abdulla Boltayev ("Xorazm tarixiga materiallar"), Polvonniyoz Hoji Yusupov ("Xotiralar")larning asarlarida ham Xiva xonligi qo'ng'irotlar sulolasini davri tarixi haqida ma'lumotlar mavjud.

Komyobning qalamiga mansub "Tavorix ul-xavonin" asarining beshinchibobida qo'ng'irot inoqlarining qay tarzda hokimiyat tepasiga kelishi va ularning markazlashgan hokimiyat tuzish uchun olib borgan harakatlari, bu yo'lda yovmitlarga qarshi va Buxoro bilan olib borgan tinimsiz kurashlari to'g'risida ma'lumot berilgan. Bundan tashqari rus qo'shinlarining xonlikka bosqichma-bosqich kirib kelishi va bosib olinishiga doir tarixiy voqealar bayon qilingan. Komyobning o'sha davrda yashab ijod qilganligi, siyosiy tazyiqlardan xoli shaxs bo'lganligi "Tavorix ul-xavonin" birlamchi manba ekanligining isboti o'laroq uning ahamiyatini oshiradi.

"Tavorix ul-xavonin" asarining yana bir muhim afzalligi shundan iboratki, unda ilk bor xonlikdagi tasavvuf shayxlarining davlat boshqaruviga tasiri, mavjud tasavvufiy fikrlar, ularning turmush tarzi, suluk odob-axloqi va qoidalari kabi masalalar haqidagi katta hajmdagi qimmatli ma'lumotlar berilgan.

Asar Munis va Ogahiyalar an'anasi tarzida har bir voqeaya bayoni muallif tomonidan yozilgan ko'plab nazmiy xulosalar bilan to'ldirib borilgan. Nazmiy xulosalarning aksari muallif qalamiga mansub bo'lsa, ba'zi o'rinnarda boshqa mualliflarning ijod namunalari keltirib o'tilgan. Asarning mazkur jihatlari davr adabiy jarayononi tadqiq etish, adabiy manbashunoslik nuqtai nazaridan ham qimmatlidir.<sup>82</sup>

<sup>82</sup> Сайдид Хомид Тура Комёб Таворих ул-хавонин Тошкент:Академия 2002-й 11-6

Xiva xonligiga doir nodir manbalardan yana biri-Bayoniyning “Shajarayi Xorazmshohiy” asariga to’xtalib o’tamiz. Ushbu manbada “Firdavs ul- iqbol” voqealari sodda usulda qayta bayon etilgan. 1846-yildan 1873-yilgacha bo’lgan voqea-hodisalar va 1873-1914-yillar oralig’ida sodir bo’lgan tarixiy o’zgarishlar sodda, izchil, ta’sirli, ravon tilda ifodalangan. Asarda Xiva xonligining ichki va tashqi siyosati, toj-u taxt uchun kurashlar va ularning mash’um oqibatlari hamda bular tufayli xalq boshiga tushgan musibatlar haqida ko’plab ma’lumotlar berilgan. Bayoniy “SHajarayin Xorazmshohiy” asarida Chor Rossiyasining Xiva xonligiga yurishlari, Kaufman, Skobelevlarning qilgan bedodliklari, xalqqa qilgan jabr-zulmlariga bildirgan nafrati ochiq tarzda ifodalangan. Mustaqillikkacha bo’lgan davrda Rossiya O’rta Osiyo munosabati turlicha talqin etilgan.

XX asrning 20-30-yillarida Rossiya tomonidan Turkistonning bosib olinishi va mustamlakachilik siyosatiga bag’ishlangan qator ilmiy ishlar nashr etilgan. Bularning ko‘pchiligi maqolalardan iborat bo’lgan.

N.A.Xalfin ba’zi yasama hujjatlar asosida Turkistonni faqat qurol kuchi bilan bosib olindi degan fikrga qarshi chiqib, “ixtiyoriy” ravishda itoat etish istagini bildirgan joylarini mammuniyat bilan tilga oladi.

Xullas, N.A.Xalfinning fikr-mulohazalaridan Rus davlatining harbiy ishlari va hukmronligi o’lka uchun “tarixiy zarurat” bo’lib chiqdi. Bunday uydirma gapga mutlaqo qo’shilib bo’lmasligiga shak-shubha yo’q.

“Men 1966-yilda “Toshkentning Rossiyaga qo’shib olinishi” nomidagi risola chop ettirdim. Garchand bu ishda birinchi marotaba toshkentliklarning rus soldatlariga qarshi qahramonona janglari, shahar qonga belangan va vayronaga aylantirilgan holda urushib olinganligi oshkora ko’rsatilgan bo’lsa-da, lekin “qo’shib olinishi” iborasi ishlatildi.”<sup>83</sup>

Aslida O’rta Osiyo Rossiyaga tinch yo’l bilan qo’shib olindimi yoki bosib oldimi? Bayoniy “Shajariy Xorazmshohiy” asarida O’rta Osiyo tasxir etildi, ya’ni zabit etildi deb yozgan.

O’rta Osiyo viloyatlarini birin-ketin egallayotgan Rossiya imperiyasining Xorazmga yurish boshlashiga quyidagi hodisa bahona vazifasini o’tagan: “Bahri Xazor kenorida baliqchilik etib yurgan Rusiya fuqarolaridin ba’zilarini Manqishloq qazoqlaridin bir jamoa asir etib kelturub, Xevaqda sotmoq boshladilar. Ikki yil oradin o’tib, asirlar yigirma birga yetdi. Hijratning ming ikki yuz sakson yettinchi yilida Rusiya davlati bundin ogoh bo’lib, elchi yuborib, ul asirlarni tiladi” (Shajarayi Xorazmshohiy”, O’zFA QI,274-raqam, 452b-453a-sahifalar).

Elchi keltirgan noma mazzmuni bunday edi: “Siz jamoa bila bizlar burundin do’stliq bila ravish etib yurur erduk. Alhol, eshiturmizkim, bir nechta o’g’ri va avboshlar biz jamoadin bir nechta kishini asir etib eltib, ul taraflarda sotg’on emishlar. Tavaqqu uldurkim, burung’i do’stliqning rioyasin tutub ul asirlarni berib yuborgaysiz. Qozonlidin ul tarafi sizning haddingiz va bu tarafi bizga mutaalluqdur.

<sup>83</sup>Хамид Зиёев Туркистонда Россия тажовузи ва хукмронлигига карши кураш Тошкент: Шарқ 1998-й 8,9-б

Mundin so'ng aslo bir-birimizning haddimizga mutaarriz bo'lmay, do'stona sulukni masluk tutg'aymiz.Odam avlodи aziz va mukarram jamoadurlar. Olarni chorpoj qatorlarida bozorg'a solib sotmoq hech viloyatda yo'qdur. Sizlar ham mundog' tini etmasangiz yaxshiroqdur. Bu so'zlarni qabul etsangiz, biz jamoaning boisi minnatdorliqimizdur. Vagarna, mundog' ishlarning oxiri nizo va harobg'a munjar bo'lur, vassalom"(453a-b). Xorazm xoni nomaga javoban qullarni ozod etsa, adolatdan bo'lardi, albatta. Ammo bu bo'lg'usi istiloni to'xtatolmas, biroz kechiktirishi mumkin edi, xolos.

1873-yilg may oyida Rossiyaning Xivaga yurishi boshlanadi. Bayoniy "SHajarayi Xorazmshohiy" asarida Rossiya bundan avval ham besh martaba harakat olib borganligi hamda zafar topa olmaganligi haqida quyidagi so'zlarni yozib qoldirganyozib qoldirgan: "Zotan, Rusiya davlati mundin burun besh marotaba Xorazm ustiga askar yuborib, alarming ba'zilari Xorazm yo'lida tashnalikdan qirilib, ba'zilari Xorazmga borib urushib, qirilib, hanuzgacha zafar topa olg'onlari yo'q erdi".(4586) Qullikka qarshi oqilona so'zlar yozgan imperiyaning o'zi necha-necha "aziz va mukarram jamaoa"larni asriy qullik asoratiga shafqatsiz tortayotgandi. Xonning rad javobi Chor armiyasi hujumini tezlatdi. Chunki ushbu yili Rusiya davlati... Samarqand va Zarafshon vodiylarini zabt etib, Xo'qand va Buxoro oralig'iga kirgan"(454a),navbat Xorazmga yetgan va elchi maktubida muqarrar "nizo va harb" dan ogohlantirilgan edi.<sup>84</sup>

Xulosa qilib aytganda tarixsiz kelajak bo'lmaydi. Aynan mamlakatimiz haqqoniy tarixini o'rganishda yuqoridagi keltirilgan manbalar nihoyatda qimmatli hisoblanadi. Aynan bu manbalarni o'sha davrga guvoh bo'lgan tarixnavislar tomonidan yozilganli ularning qiymatini yanada oshiradi. Turli manbalarni o'rganish davomida ularni tahlil qilib borsak hamda holis yondoshsakgina to'g'ri xulosa chiqara olamiz.

<sup>84</sup>[www.ziyouz.com](http://www.ziyouz.com)